32. Khamdamova M. T. Ultrasound assessment of changes in the endometrium of the uterus in women of the first and second period of middle age when using intrauterine and oral contraceptives // Biomedicine va amaliyot journals. – Tashkent, 2020. - No. 2. - Part 8.- P.79-85.

33. Khamdamova M.T. Features of ultrasound parameters of the uterus in women of the first and second period of middle age using injection contraceptives // New day in medicine. Bukhara, 2020. - No. 2/1 (29/1). - P.154-156.

34. Khamdamova M.T. Features of ultrasound images of the uterus and ovaries in women of the second period of middle age using combined oral contraceptives // New day in medicine. Bukhara, 2020. - No. 2 (30). - P. 258-261.

35. Khamdamova M.T. Individual variability of the uterus and ovaries in women who use and do not use various types of contraceptives // New day in medicine. Bukhara, 2020. - No. 3 (31). - pp. 519-526.

36. Khamdamova M. T. Echographic features variability in the size and shape of the uterus and ovaries in women of the second period of adulthood using various contraceptives // Asian Journal of Multidimensional Research - 2020. – N9 (5). - P.259-263.

37. Khamdamova M. T. Somatometric characteristics of women of the first and second period of adulthood using different contraceptives with different body types // The american journal of medical sciences and pharmaceutical research - 2020. – N8 (2). - P.69-76.

38. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
39. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-containing intrauterine device // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - pp. 2-7. 37.Khamdamova M. T. Bleeding when wearing intrauterine contraceptives and their relationship with the nitric oxide system // American journal of pediatric medicine and health sciences Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2149. P.58-62
40. Khamdamova M. T. The state of local immunity in background diseases of the cervix // Eurasian journal of medical and natural sciences Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-287X P.171-175.
41. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // New day in medicine. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.
42. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 39-45.
43. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 33-38.
44. Eshbekov M.A., Khamdamov B.Z., Usmanova N.U. Immunocomplex mechanisms during chronical glomerulonephritis // International conference on Advance research in humanities, science and education, London, April 2023- P.504-513.
45. Eshbekov M.A., Khamdamov B.Z., Usmanova N.U. The significance of immunocomplex mechanisms during chronical glomerulonephritis // International conference on Advance research in humanities, science and education, Germany, May 2023- P.89-98.

**KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO TA'LIM DASTURLARI**

Matrazov Kuranmurat Salayevich,

Urganch tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori .

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy ta'linda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiylari va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga qilingan.

Kalit so'zlar: "Ekspeditor", "Pirson", BITEK

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioxcha etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurmoqda. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiylari va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Hozirga qadar professional ta'lif tizimi 3 ta turdag'i jami 672 ta muassasa: 333 ta kasb-hunar maktabi, 112 ta kollej va 227 ta texnikumdan iborat bo'lib, ushbu muassasalar tabaqlashgani va dasturlari o'rtasida uzviylik bo'lmagani natijasida, ularning quvvatlaridan unumli foydalanilayotgani aniqlangan. Endilikda Prezident farmoni bilan 3 ta turdag'i muassasalarni optimallashtirilib, ularning negizida barcha darajalar va yo'nalishlar bo'yicha kadr tayyorlaydigan yagona muassasa turi – texnikumlar tashkil etiladi. Bunda, 672 ta professional ta'lif muassasalari negizida 600 ta texnikum tashkil etiladi, 71 ta ta'lif muassasalari maktablarga berilib, 42 mingta yangi o'quvchi o'rnlari yaratiladi. Barcha dasturlarni bitta muassasa negizida o'qitish natijasida ta'lif darajalarining uzviyligi, uzuksizligi va integratsiyasi ta'minlanadi hamda ularning smena koefitsiyenti normallashadi. Jumladan, professional va oliy ta'lif modullarini yagona dasturga birlashtirish va "2+2", "1+3" kabi moslashuvchan dasturlar bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Texnikumlarda o'qish muddatlari va davomiyligini kasb murakkabligi va o'quvchining ta'lif darajasiga qarab belgilanadi. Misol uchun, "Ekspeditor" kasbi bo'yicha 9-sinf bitiruvchisi 3 yil o'qisa, 11-sinf bitiruvchisi 2 yil o'qiydi. O'z navbatida turli darajadagi kasbiy ta'lif dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlanadi, ya'ni o'zlashtirilgan modullardan kelib chiqib ta'lif dasturlarining o'qitish muddatlari belgilanadi. O'rta maxsus kasbiy ta'lif dasturlarining bitiruvchilar o'zlashtirgan modullari, to'plangan kreditlari va oliy ta'lif tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning muayyan bosqichidan o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladir. Texnikumlarning mustaqilligi kengaytiriladi va ular ish beruvchilar talabi asosida fanlar soni va soatlarini 30 foizgacha o'zgartirish va qo'shma dasturlarni joriy qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Texnikumlar buyurtmachilar bilan kontrakt asosida kadrarni tayyorlash bo'yicha shartnomalar tuzish, ushbu dasturlarning qabul parametrlari, ta'lif tili va qiymatini mustaqil belgilaydi. Shuningdek, texnikumlarga mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish, tushgan pullar hisobidan o'zining moddiy holatini yaxshilash, o'quvchilar va pedagoglarni rag'batlantirish huquqi berilmoqda.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Farmonga muvofiq, xalqaro ta'lism dasturlari bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish bo'yicha qator ishlar amalga oshiriladi. Xususan, dasturlar sifati va jozibadorligini oshirish maqsadida 14 ta texnikumda tajriba tariqasida 12 ta kvalifikatsiya bo'yicha "Pirson" kompaniyasining BITEK dasturini joriy qilinadi. Ta'kidlash joizki, Pirson yetakchi xalqaro ta'lism tashkiloti bo'lib, dunyo bo'ylab 784 ta markazga ega va uning 90 foiz bitiruvchisi ish bilan ta'minlanadi.

Bunda, har bitta texnikumda BITEK dasturi bo'yicha alohida bo'lim tashkil etiladi. Bo'lim xodimlari Pirson kompaniyasi bilan hamkorlikda dastur joriy qilinishini to'liq muvofiqlashtirib boradi. BITEK dasturi joriy qilingan muassasalarga to'liq akademik mustaqillik beriladi.

BITEK dasturlarini amaliyatga kiritish natijasida 180 nafar pedagogning malakasi oshiriladi va yiliga 1 680 nafar talabgor o'qishga qabul qilinadi. Bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beriladi va 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish imkonii yaratiladi. Natijada, rivojlangan davlatlardagi malakali va yuqori daromadli ish o'rinaliga yuborilgan muhojirlarning ko'لامи oshadi. BITEK dasturlarini joriy qilish natijasidan kelib chiqib, ushbu tajriba bosqichma-bosqich boshqa texnikumlarga ham tatbiq etiladi.

Prezidentning mazkur Farmoni bilan o'qitish jarayoniga ish beruvchilar keng jalg qilinadi. Hozirgacha qabul parametrlari va ta'lism dasturlari ish beruvchilar talabi asosida emas, balki ta'lism muassasalaridagi o'qituvchilar va mavjud asbob-uskunalaridan kelib chiqqan holda shakllantirilib kelinayotgani bois muayyan hududlarda muayyan o'rta bo'g'in kadrlarga ehtiyoj bo'lsa-da, o'sha hududda joylashgan texnikumda ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilmaganini kuzatish mumkin. Bu holatni bartaraf etish maqsadida qabul parametrlarini shakllantirish bo'yicha elektron platforma yaratiladi, barcha vazirlik va ish beruvchilar unga ulanadi. Texnikumlarning ta'lism dasturlari tarmoq kengashlari, tadbirkorlar birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyatga kiritiladi. Bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi ish beruvchilar va uyushmalar vakillari ishtirokida amaliy imtihon shaklida o'tkaziladi. Professional ta'lism muassasalarida o'quvchilar bilimini yakuniy baholash asosan muassasadagi xodimlardan tashkil topgan komissiya tomonidan o'tkazilishga barham beriladi. Farmonga ko'ra, sohada zamonaviy boshqaruvi tizimi joriy etiladi. Hozirgacha professional ta'linda yaxlit boshqaruvi tizimi mavjud bo'lmaganligi va muassasalar 27 ta vazirlik va idoralar bo'ysunuviga berilganligi sababli, ularning faoliyati samarali tashkil

etilmagan. Vazirliklar o'rtaida muvofiqlashtirish bo'limganligi sababli 75 ta kasbga o'qitish markazida o'qitilayotgan 30 dan ortiq kasblar yaqin hududdagi 275 ta professional ta'lim muassasasida ham o'qitilmoqda.

Shunga ko'ra, professional ta'limda tashkiliy-boshqaruvi va metodik masalalarni muvofiqlashtiruvchi va yagona davlat siyosatini yurituvchi organ sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilanmoqda. Bunda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim muassasalarida o'qitilishi mumkin bo'lgan kasblar ro'yxati, ular bo'yicha beriladigan malaka darajalari va o'qitishning minimal muddatlarini belgilaydi. Professional ta'lim muassasalarini adabiyotlar va jihozlar bilan ta'minlash hamda o'quv jarayonini raqamlashtirish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida alohida Jamg'arma tashkil etilmoqda. Bunda Jamg'armaga Vazirlikning budgetdan tashqari jamg'armasidan 50 mld so'm va Davlat budgetidan 2025-yilda 50 mld so'm ajratiladi. Texnikumlarning direktori va direktori o'rinnbosari lavozimlariga talabgorlarni tanlash Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining onlays platformasi orqali ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi. Texnikum direktorlari bilan 3 yillik mehnat shartnomasini tuzish va faoliyat natijasidan kelib chiqib, ular bilan shartnomani uzaytirish yoki bekor qilish tartibi joriy etiladi. Joriy etilayotgan choralar O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimi yanada takomillashtirish, ishsizlikni kamaytirish va malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cspu.uz/>
2. <https://lex.uz/>
3. <https://gov.uz/>
4. Arxiv.uz
5. Gazeta.uz
6. S.Otajonov "Mavzu ishlanmasi" tayyorlashning innovatsion xarakteriga ega bo'lgan metodlari. Monografiya-2022

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishni samarali tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi. Loyiha boshqaruvi (MSc-Master of Science)-mutaxassisligi magistranti

Bozorov Jumanazar To'xtayevich

jumanazarbozorov@yandex.com

Effective organization of project financing through bank loans.

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan. Project management (MSc-Master of Science) - master's degree

Bozorov Jumanazar Tokhtayevich

jumanazarbozorov@yandex.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishning samarali tashkil etilishi masalalari o'rganiladi. Loyihaviy moliyalashtirish – iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy vosita bo'lib, moliyalashtirish jarayonida banklarning roli katta. Ushbu ishda loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun muhim omillar, bank kreditlarini loyihaga jalgan qilishning afzalliklari, mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, chet el tajribasini o'rganish asosida mahalliy bank tizimi uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tezis xulosalari O'zbekiston sharoitida loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy choralarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: bank kreditlari, loyihaviy moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya loyihalari, moliyaviy resurslar, samaradorlik, chet el tajribasi, tavsiyalar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract

This scientific thesis examines the issues of effective organization of project financing through bank loans. Project financing is an important financial tool for economic

development and support of new initiatives, and the role of banks in the financing process is significant. In this work, important factors for increasing the efficiency of project financing, advantages of attracting bank loans to the project, existing obstacles and ways to overcome them are analyzed. Also, based on the study of foreign experience, recommendations for the local banking system will be developed. Conclusions of the thesis offer practical measures aimed at increasing the efficiency of project financing in the conditions of Uzbekistan.

Key words: bank loans, project financing, economic development, investment projects, financial resources, efficiency, foreign experience, recommendations, financial stability.

Kirish

Bugungi kunda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardosh loyihalarni amalga oshirishda bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishning roli tobora ortib bormoqda. Bank kreditlari yirik va o'rta biznes subyektlariga yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu moliyalashtirish shakli, ayniqsa, infratuzilma, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi yangi loyihalar uchun ahamiyatli bo'lib, ularning samarali amalga oshirilishi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka sezilarli hissa qo'shadi.

Loyihaviy moliyalashtirishda bank kreditlarining samaradorligini oshirishda qator omillar, jumladan, risklarni tahlil qilish, kredit portfellarini to'g'ri boshqarish va loyihalarning qaytaruvchanligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida loyihaviy moliyalashtirishga doir muammolar va to'siqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur ishda bank kreditlari orqali loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar, chet el tajribasi va O'zbekiston bank sektorining o'ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Shu orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun samarali moliyaviy vositalarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Loyihaviy moliyalashtirishda bank kreditlari eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi, chunki u katta miqdordagi kapitalni jalb qilish, uzoq muddatli va qaytaruvchanlik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Bunday loyihalar banklar va korxona egalari uchun hamkorlik qilishni talab etadi, chunki banklar moliyaviy resurslarni taqdim etish bilan birga, loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun monitoring, risklarni boshqarish va nazorat funksiyalarini ham bajaradi. Shu jihatdan, loyihaviy moliyalashtirishni samarali tashkil etish uchun puxta o'yangan strategiyalar va ilg'or boshqaruv usullariga ehtiyoj katta.

Bank kreditlari orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri kreditlash shartlarini moslashtirishdir. Uzoq muddatli loyihalar uchun beriladigan kredit shartlari, foiz stavkalari va to'lov grafiklarini loyihaning xarakteriga mos ravishda belgilash zarur. Bu esa loyihalarning moliyaviy oqimlarini va rentabelligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, risklarni oldindan tahlil qilish va ularni minimallashtirish uchun banklar hamda loyiha ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlik va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish zarur.

O'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish va kreditlardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun xalqaro tajribani o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar bank tizimlarida qo'llanilayotgan ilg'or kreditlash usullari va risklarni boshqarish mexanizmlari O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashtirishda qo'llanilishi mumkin.

Mazkur ish O'zbekiston sharoitida bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bank kreditlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini oshirish, moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish va boshqarish orqali mamlakatda innovatsion va raqobatbardosh loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Mazkur ilmiy tadqiqot bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini va uning samarali tashkil etilishida muhim omillarni o'rganadi. Bank kreditlari, ayniqsa, yirik va uzoq muddatli loyihalar uchun asosiy moliyalashtirish manbasi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajriba va zamonaviy usullardan foydalanish zarurligi, shuningdek, O'zbekiston sharoitiga mos kreditlash va risklarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish taklif etildi.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyihaviy moliyalashtirishning muvaffaqiyati banklarning kreditlash shartlarini to'g'ri belgilashi, risklarni minimallashtirish va loyihalarni nazorat qilish tizimiga bog'liq. Shu bilan birga, mamlakatda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va moliyalashtirish jarayonini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish mumkin.

Xulosa sifatida, O'zbekiston bank tizimining xalqaro tajribaga asoslangan holda o'zini takomillashtirishi va yangi moliyalashtirish usullarini joriy qilishi kelgusida loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashi mumkinligi ta'kidlanadi. Mazkur tavsiyalar bank kreditlarining iqtisodiyotdagagi o'rnini yanada mustahkamlashga, innovatsion va raqobatbardosh loyihalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya muhitini yaxshilashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish zarurligini ham ko'rsatdi. Ushbu hamkorlik nafaqat moliyalashtirishning o'ziga, balki loyihalarning risklarini kamaytirish, ularni samarali boshqarish va monitoring qilish jarayonlariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan kafolatlar berish va investorlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish ham loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlarining o'rnini mustahkamlashda muhimdir.

Shuningdek, loyihaviy moliyalashtirishni samarali tashkil etishda kredit shartlari, foiz stavkalari va to'lov muddatlarini loyihaning turiga qarab moslashuvchan belgilashning ahamiyati katta. Bu yondashuv bank kreditlarining qaytaruvchanligini ta'minlash va loyihalarni barqaror daromad olish yo'liga yo'naltirish imkonini beradi. Kredit xavfini kamaytirish maqsadida banklar va mijozlar o'rtasida ishonchli hamkorlik, shuningdek, turli xil sug'urta va kafolat mexanizmlaridan foydalanish zarur.

Chet el tajribasi asosida, O'zbekistonda bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan loyiha monitoring tizimlari, tahlil usullari va risklarni boshqarish modellari O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalar va raqamli xizmatlarni moliyaviy jarayonlarga integratsiyalash, loyihalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu xulosalar loyihaviy moliyalashtirish jarayonlarini optimallashtirish orqali O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov, A. (2021). Loyihalarni moliyalashtirish va investitsiya loyihalari boshqaruvi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Ziyodullayev, B. va Norov, S. (2019). Bank tizimida loyihaviy moliyalashtirishning zamonaviy usullari. Toshkent: Bank-Moliya Instituti Nashriyoti.
3. Yusupov, M. va Qodirov, K. (2020). "Loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlari: xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish." Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2(3), 45-62.
4. Asian Development Bank (2022). Project Financing in Central Asia: Opportunities and Challenges. ADB Publishing.
5. World Bank Group (2021). Innovative Approaches to Project Finance and Development in Emerging Markets. Washington, DC: World Bank Publications.
6. European Investment Bank (2020). Best Practices in Project Finance: Risk Management and Monitoring. Luxembourg: EIB.
7. Karimova, L. (2023). Bank kreditlari orqali iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash. Toshkent: O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi.
8. IFC (International Finance Corporation). (2019). Private Sector Participation in Project Finance in Emerging Economies. Washington, DC: IFC Publications.
9. Qosimov, R. va Mamatov, H. (2022). "Bank kreditlari orqali moliyalashtirishning milliy iqtisodiyotdagagi o'rni va rivojlantirish yo'llari." O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish jurnali, 5(4), 78-89.
10. Henderson, R. & Smith, J. (2021). Project Finance for Infrastructure Development: A Practical Guide. London: Financial Times Publishing.

ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ОНА ТИЛИ
СОФЛИГИГА ЭРИШИШ МАСАЛАЛАРИ

Сироҗиддин Қурбонбоевич Сапарбаев

Бош прокуратура Кадрлар бошқармаси прокурори

Ўзбек халқи тарихининг XIX аср охири XX аср бошларидағи даври тарихан қисқа вақтни ташкил этган бўлсада, халқимиз тарихий тақдирида муҳим аҳамиятга молик бўлган даврdir. Шу даврда майдонга келган жадид маърифатпарварлик ҳаракати мактаб ва маориф, матбуот, адабиёт ва санъат соҳаларида ислоҳотчилик ишларини амалга оширибгина қолмай, халқнинг маданий, маърифий ва руҳий ҳаётини бутунлай ўзгартириб юборди.

Жадидлар шароит тақозосига кўра, биринчи навбатда, халқнинг саводини чиқариш, билимини ошириш, миллий ҳис-туйғуларини ва сиёсий онгини ўстириш учун курашдилар. Ватанпарвар жадидларнинг асосий мақсадларидан биринчиси миллий истиқлол бўлса, иккинчиси, миллий тараққиёт эди.

Бу ҳақида, давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев фикр юритиб, “ўтган асрнинг бошларида юртпарвар, миллатпарвар боболаримиз “жадидчилик”, яъни янгиланиш ва эркинлик, адолат ва тенглик, илм-маърифат ва миллий ўзликни англаш ғояларини байроқ қилиб, кураш майдонига мардона чиққанларини барчамиз яхши биламиз. Бу улуғ зотларнинг мақсади – жаҳолат ва қолоқлик гирдобида қолиб келаётган Туркистон халқини дунёвий илм-фан, илғор касб-ҳунарлар билан қуроллантириб, умумбашарий ривожланиш йўлига олиб чиқищдан иборат эди”²⁰ деб таъкидлаган эди.

Жадидлар ўзларнинг асарлари ва матбуотда чиқишилари орқали тараққиётга эришиш учун халқимиз турли хил майда майший муаммолардан чиқиши, ўзларини қийнаб, тараққиётга интилиши, жаҳон илм-фани ютуқларини ўзлаштириши зарурлигини таъкидлаб келдилар.

Жумладан, Абдулла Авлоний ўзининг 1914 йил 25 апрелда “Садои Туркистон” газетасида эълон қилинган “Маданият тўлқунлари” номли мақоласида “биз қирдан қирға қочурмиз, қаршимизда майшат машаққатлари чиқуб хужум қилур, ўнгимиздан

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда.- Тошкент: Ўқитувчи, 2021. -Б. 8-9

билимсизлик ва жаҳолат келуб, жонларимизни сиқур, сўнгимиздан мусрифлик, фақирлик ва бидъатлар чиқуб йўлимизни тўсур. Дангасалик, ялқовлик, ишсизлик устимиздан босуб, бўғмак истар. Ажабо. Биздар ҳамон бу эскича ромка орасидан чиқуб қочмак истамаймиз”²¹ деб таъкидлаган эди.

Қайд этиш керакки, бугунги кунда жадидлар маърифатпарварлари томонидан илгари сурилган умуммиллий ғоялардан айримлари, яъни миллий мустақил давлат барпо этиш, аҳоли саводхонлигига эришиш, очик ва эркин матбуотни яратиш ва миллатни сиёсий миллатга айлантириш каби мақсадлар ҳаётимизда тўлиқ ўз аксини топган. Аммо жадидлар томонидан илгари сурилган айрим масалалар, хусусан, **она тилимиз софлигига эришиш масаласи** бугунги кунга қадар ўз долзарблигини йўқотмаган. Қуйида ушбу масала хусусида тўхталиб ўтамиш.

Жадидлар томонидан ўз даврида халқ маънавияти ва маданияти ривожи масалалари тўғрисида анча бош қотирилган эди. Шулардан энг асосийси, умуман, жадидларнинг марказий муаммоларидан бири она тилимиз масаласи эди. Аввало, жадидлар “Чиғатой гурунги” атрофида тўпланиб, она тилимизнинг софлиги, мустақиллиги ва истиқболи учун ҳам курашганлар. Лекин улар она тилимизни бошқа тиллардан тўлиқ айириб, уни дунё билан узилган ҳолда ривожлантириш фикридан мутлақо узоқ эдилар.

Хусусан, **Беҳбудий ўзининг “Тил тўғрисида”** мақоласида она тилимиз ривожланган бошқа тиллар билан алоқага киришиб улардан сўз ўрганаётган экан, сўзларни ўзининг лугат таркибиға қўшаётган бўлса, буни фақат табрикламоқ керак, дейди. Шунинг учун улуғ маърифатчи тилларнинг бир-биридан ўринли лугат олишини табиий жараён деб қарайди. Энг бой тиллардан бўлган инглизчанинг ҳам “ўн минглар илиа бегона луҳатларни мажбуран олганлиги”ни далил қилиб кўрсатади. Шунингдек, Беҳбудий ушбу мақоласида “она тили, она тили” бу яхши орзу. Аммо тилсиз оналар тилига мактабий китоблар ёзила берса, Туркистанда ададсиз бузук она тиллар шевасиға ададсиз китоблар ёзмоқ лозим келурки, Андижонда ёзилгани Бухорода,

² Абдулла Авлоний. Шеърлар, педагогик асарлар, драма, мақолалар ва саёҳатнома. Нашрга тайёрловчилар Бегали Қосимов, Олим Отинбек. – Тошкент: Забаржад Медиа, 2022. –Б. 340-341

Авлиётада ёзилгани Қаршида англашилмайдур. Чунки бизни илм ва тилсизлигимиз аларданур²² деб ёzádi.

Шу сингари, **Беҳбудий** ўзининг “Икки эмас тўрт тил лозим” мақоласида биз дунёга чиқмоқ учун ва дунёга ўзимизни танитмоқ учун фақат форсий ва туркий эмас, бугунда арабий ва русий тилларни ҳам ўрганмоғимиз кераклигини, чунки бу тилларни ҳаммаси бизга имконият беришини таъкидлайди. “Биз туркистонликларга туркий, форсий, арабий ва русий билмоқ лозимдур²³” дейди. Беҳбудий ўз сўзида давом этиб, туркий тилни туркистонликлар тили эканлигини, форсий тилни адабиёт тили эканлигини, араб тилини дин ва мадраса тили эканлиги ва рус тилини ўша вақтдаги замон ва техника тили бўлганлиги сабабли уларни ўрганиш лозимлигини айтади. Беҳбудий ва унинг издошлари бу билан она тилини унтишга, уни бошқа тилларга алмаштиришга даъват этишмаган. Аксинча, улар она тилининг соғлиги, унинг мустақиллиги учун курашиб, ҳар бир инсон ўзининг тили орқали қалбида миллат туйғусини туюшини исташган.

Буюк жадид намояндадаридан **Абдурауф Фитрат** ҳам ўзининг “Тилимиз” мақоласида “дунёнинг энг бой тили туркчадир, энг баҳтсиз тили худ туркчадир. Тилларнинг баҳтсизлиги совет ҳукумати чоғинда бўлғон бир ишдир. Бундан бурун баҳтли эдилар, деганлар тилимизни ҳолини билмасдан гапиурулар²⁴” деб таъкидлаб, туркий тилнинг жамият ҳаётидаги нуфузининг пасайиши фақатгина советлар вақтида пайдо бўлмаганлигини, бундан илгарироқ ушбу тилга форсий ва арабий тилларнинг ҳам сезиларли даражада таъсири бўлганлигини, аммо туркий тил чукур тадқиқ этилса унинг жуда кўплаб синонимлари мавжудлиги, Навоий ўзининг “Муҳқокамат уллугатайн” асарида биргина “йиғламолқ” сўзининг 7 хил турларини кўрсатиб берганлигини, араб тилида келган сўзлар билан туркий тилда бўлган сўзлар

³ Махмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар Б.Қосимов. –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 189-190

⁴ Ўша асар. –Б.151-153

¹⁶ Абдурауф Фитрат. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар, публицистика, тилшунослик ва адабиётшуносликка оид мақолалар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи филология фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: Забаржад Медиа, 2022. –Б. 369-374

солиширилганда туркий тилдаги сўзларнинг ўхшаш турлари бир неча марта кўплигини исболаб беради.

Шу ўринда, Ўзбекистон халқ ёзувчisi **Шукур Холмирзаевнинг** “**Бу кишим – устоз, мен – шогирд**” эссесида М.Қўшжонов тилидан келтирилган қуйидаги ҳолатлар диққатимизни тортади. “Ўткан кунлар”ни ўқимаган йўқдир... Ҳа. Энди эслаб қўрингизлар. Қодирий тошкентлик бўлган. Романдаги асосий қаҳрамонлар ҳам тошкентликлар. Аммо уларнинг муомаласида бирор марта “вотти-вотти” ёки “борвуз-келавуз” деган гапларни учратасизми? Мутлақо... Ҳолбуки, бунга муалифнинг тўла ҳаққи бор эди... Адабий тил – миллатнинг бирлигини таъминлайдиган энг зўр, энг қудратли қурол деб ўрганганимиз. Бунга Қодирийнинг ҳам, Чўлпоннинг ҳам ўша – йигирманчи йиллардаёқ ақллари етиб, ана шу қаноатни мустаҳкамлаш, халқни онгига сингдиришни ўз олдиларига мақсад қилиб қўйганлар...

Яқинда қўлимга бир ҳужжат тушиб қолди. Ўшанда денг, Туркистон генерал-губернаторининг махфий буйруги вилоятлар ва бўлис ҳокимларига тарқатилган экан. Унда айтилишича, масалан, ўзбек зиёлилари мактаб очмоқчи эканми – марҳамат, очсинлар. Дарслик яратишмоқчими – марҳамат, яратсинлар. Аммо битта шарт билан: ҳар бир вилоят мактабларида дарслар ўша ернинг лаҳжасида олиб борилсин, яъни шевасида ўтилсин. Дарслар ҳам, дарсликлар ҳам ўша шевада ёзилган бўлсин. Шунинг учунким, дейилади махфий ҳужжатда – адабий тилнинг яратилишига йўл қўймаслик керак. Нимагаки, адабий тил – ўзбекларнинг бошини бирлаштиради. Бу эса, бизнинг, яъни Чор Русиясининг манфаатларига мос келмайди, деб қайд этилганлигини таъкидалайди²⁵.

Зоро, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармони билан тасдиқланган “2020 - 2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси”да давлат тилининг соғлигини сақлаш, уни бойитиб бориш ва аҳолининг нутқ маданиятини ошириш борасида жадид намояндаларининг бой маънавий мероси, ҳаёти ва фаолиятини ўрганишга оид илмий изланишларни рафбатлантириш масаласи ҳам бу фикрни яна бир бор тасдиқлайди.

Хулоса ўринда айтиш мумкинки, биз она тилимиз соғлигига эришиш борасида жамиятда давлат тилининг нуфузи ва мавқеини оширишга қаратилган ташкилий чора-

²⁵ Холмирзаев Ш. Сайланма: 4-жилд: Эсслар. – Тошкент: Шарқ, 2007. –Б. 294-295

тадбирларни амалга оширад эканмиз, ушбу ишлар қаторида жадид маърифатпарварларининг бой маънавий мероси, ҳаёти ва фаолиятини доимий ўрганиб боришимиз мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки тил соғлигига эришиш фақат битта тилнинг дарди бўлиб қолмасдан, дунёқарашимиз ва тафаккуримизнинг таъсир этадиган бутун халқимиз эътиборидаги масала ҳисобланади.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Davlat moliyaviy nazorat

23-21 guruh magistranti

Oqilov Abrorjon Rahmonkulovich

Improving inventory accounting and auditing

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan State Financial Control

Graduate student of group 23-21

Akilov Abrorjon Rahmonkulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. TMZ korxonalar uchun moliyaviy barqarorlik va ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligini ta'minlovchi asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Maqolada TMZ hisobi va auditidagi mavjud muammolar, jumladan, hisob-kitoblarning kechikishi, zaxiralarni noto'g'ri baholash va ma'lumotlarning noto'g'ri yetkazilishi kabi kamchiliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, TMZ hisobi va auditida zamonaviy usullarni joriy etish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari TMZ hisobini aniqroq olib borish va audit samaradorligini oshirishda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Tovar-moddiy zaxiralar, hisobot, audit, hisob-kitob, samaradorlik, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik, korxona, boshqaruv.

Abstract

This article analyzes ways to improve inventory accounting and auditing processes. TMZ is one of the main resources that ensure financial stability and continuity of the

production process for enterprises. The article examines existing problems in TMZ's accounting and auditing, including accounting delays, misvaluation of reserves, and misreporting. Also, recommendations are made for the introduction of modern methods, automation and digitization in TMZ accounting and auditing. The results of this research can be useful in making the TMZ account more accurate and improving the efficiency of the audit.

Keywords:

Inventory, reporting, auditing, billing, efficiency, automation, digitization, financial stability, enterprise, management.

Kirish

Bugungi kunda korxonalar o'z faoliyatlarini samarali olib borish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun tovar-moddiy zaxiralarni (TMZ) boshqarishni yuqori darajada yo'lga qo'yishlari talab etiladi. TMZ korxonaning asosiy resurslaridan biri bo'lib, ularning to'g'ri hisobga olinishi va audit qilinishi ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligini, xarajatlarni samarali boshqarishni va moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, TMZ hisobi va auditida yuzaga keladigan xato va kamchiliklar korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari jadal rivojlanayotgan bir paytda TMZ boshqaruvini takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli, TMZ hisobi va auditida yangi yondashuvlarni joriy etish orqali jarayonlarning aniqligi va samaradorligini oshirish, hisobot tizimini yaxshilash zarurati paydo bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqot TMZ hisobi va audit jarayonlarini yanada rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda korxonalarda TMZ boshqaruvini samarali tashkil etish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

TMZ boshqaruvi korxonaning moliyaviy resurslarini samarali ishlatish, zaxiralarni optimal darajada saqlash va xarajatlarni kamaytirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Ammo, mavjud tizimlarda TMZ hisobi va audit jarayonlarida qator kamchiliklar uchramoqda. Xususan, TMZ zaxiralarini noto'g'ri baholash, inventarizatsiya jarayonlaridagi xatolar va hisobotlarning kechikishi korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolar ishlab chiqarish jarayonlarini kechiktirish va moliyaviy zararlarni keltirib chiqarishi mumkin.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda TMZ boshqaruving yanada yuqori darajaga chiqishi uchun raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish vositalaridan keng foydalanilmoqda. Masalan, elektron hisob-kitob dasturlari va bulutli texnologiyalar hisobotlarni real vaqtida kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. O'zbekistonda TMZ boshqaruvida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ko'plab korxonalarining samaradorligini oshirishi kutilmoqda.

Ushbu tadqiqot TMZ hisobi va audit jarayonlaridagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali usullarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot TMZ boshqaruvida zamonaviy hisob-kitob va audit vositalarini joriy etish orqali korxona samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va audit jarayonlarini takomillashtirish zarurati va bu boradagi mavjud kamchiliklar tahlil qilindi. TMZ korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va samaradorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi, ammo hozirgi tizimda TMZ hisobini aniq va samarali olib borishda bir qator kamchiliklar mavjud. Xususan, noto'g'ri baholash, inventarizatsiya jarayonlaridagi xatolar va hisobotlarning kechikishi kabi muammolar korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

TMZ boshqaruvini zamonaviylashtirish uchun hisob-kitob va audit jarayonlarida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Avtomatlashtirilgan tizimlar TMZ holatini real vaqtida kuzatish, inventarizatsiya jarayonlarini soddalashtirish va hisobotlar aniqligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarining joriy etilishi nafaqat hisobotlar sifatini oshiradi, balki korxonaning xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikka erishish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Shunday qilib, TMZ hisobi va auditini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. TMZ hisobini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish.
2. TMZ zaxiralarining inventarizatsiyasini optimallashtirish va xatolarni kamaytirish uchun yangi dasturiy vositalardan foydalanish.

3. Hisobot tizimini tezlashtirish va aniqroq qilish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini qo'llash.

Ushbu tadbirlar TMZ hisobi va audit jarayonlarini yanada takomillashtirish, korxonaning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari korxonalar uchun muhim amaliy tavsiyalarni taqdim etadi va TMZ boshqaruvini yanada samarali yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedov A. "Tovar-moddiy zaxiralar boshqaruvi va uning moliyaviy samaradorlikka ta'siri". Toshkent: "Iqtisodiyot va moliya" nashriyoti, 2020.
2. Karimov I., Turg'unov U. "Hisob-kitob va audit jarayonlarini avtomatlashtirish". Toshkent: "Muhandislik va texnologiya" nashriyoti, 2019.
3. Usmonov B. "Raqamlashtirish va avtomatlashtirishning korxona boshqaruvidagi roli". "Moliya va biznes" jurnali, 2021, №2, 54-62-betlar.
4. Sultonov D. "Inventarizatsiya jarayonida yuzaga keladigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari". "Auditor" jurnali, 2020, №3, 12-18-betlar.
5. Xabibullayev R. "TMZ boshqaruvini takomillashtirishda xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar". "Iqtisodiyot va innovatsiya" nashriyoti, Toshkent, 2022.
6. Nasriddinov K. "Moliyaviy hisobotlar sifatini oshirishda avtomatlashtirishning ahamiyati". "Hisob va audit" jurnali, 2023, №1, 38-44-betlar.
7. International Federation of Accountants (IFAC). "Inventory and Audit Management in Digital Age". IFAC Publications, 2021.
8. Davis J., Elliot K. "Modern Approaches to Inventory Control and Audit Efficiency". "International Journal of Business & Management", 2020, Vol. 15(3), pp. 112-120.

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

9. Boiko M. "Digitalization and Automation in Inventory Management: International Perspectives". "Journal of Financial Management", 2022, Vol. 27(1), pp. 89-97.

10. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonuni.

Banklarda ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nasrullayev Sardor Nasriddinovich

nasrullayevsardor19890606@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish jarayoni ko'rib chiqilgan. Bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki audit tizimi muhim o'rinni tutadi, chunki u orqali bankning moliyaviy va operatsion xarajatlari tahlil qilinadi va nazorat qilinadi. Maqolada ichki audit tizimining asosiy vazifalari, bank xarajatlarining turlari va ularni samarali boshqarish usullari tahlil qilingan. Xalq banki misolida ichki audit tizimining bank faoliyatiga ta'siri o'rganilgan va ichki nazorat tizimining xarajatlarni optimallashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Maqola banklarda ichki audit tizimining samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va moliyaviy barqarorlikka erishishga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: ichki audit, xarajatlar nazorati, tijorat banklari, moliyaviy nazorat, audit tizimi, moliyaviy barqarorlik, bank xarajatlari, ichki nazorat, Xalq banki, xarajatlarni optimallashtirish.

Kirish. Zamонавиев bank tizimi yuqori raqobatbardosh muhitda faoliyat yuritib, moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni ta'minlash uchun turli nazorat mexanizmlariga tayanadi. Bu mexanizmlardan biri – ichki audit tizimidir. Ichki audit bank operatsiyalarini to'liq tahlil qilib, samaradorlikni oshirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bank xarajatlarini nazorat qilish va ularni optimallashtirish ichki auditning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki moliyaviy xavflarni minimallashtirishga ham xizmat qiladi.

Ichki audit tizimi orqali bank xarajatlarini samarali nazorat qilish tijorat banklari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada ichki auditning bank xarajatlari ustidan nazorat qilishdagi ahamiyati, jarayonlari va usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki audit tizimining amaliyotda qo'llanilishi va uning bank moliyaviy samaradorligini oshirishdagi o'rni Xalq banki misolida ko'rsatib o'tiladi.

Moliyaviy institutlar, xususan, tijorat banklari o'z faoliyatining samaradorligini oshirish va barqarorlikni ta'minlash uchun ichki audit tizimlariga tayanadilar. Ichki audit bank ichidagi moliyaviy operatsiyalarni kuzatish, tahlil qilish va tartibga solishga xizmat

qiladi. Ayniqsa, xarajatlarni nazorat qilish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki ortiqcha va nazoratsiz xarajatlar bank moliyaviy ko'rsatkichlarini pasaytirishi mumkin. Shu sababli ichki audit tizimi xarajatlarni nazorat qilish va optimallashtirishda muhim rol o'yndaydi.

Ichki audit bankning ichki nazorat tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi bank ichidagi operatsiyalarni, moliyaviy hisobotlarni, xavflarni va jarayonlarni tahlil qilish va tartibga solishdir. Ichki audit tizimi bankning moliyaviy, operatsion va ma'muriy faoliyatining samaradorligini oshirish uchun yaratilgan. Bu tizim orqali moliyaviy hisobkitoblarda xatolar yoki buzilishlar aniqlanadi va bank rahbariyatiga to'g'ri qaror qabul qilishda yordam beradi. Bank ichki audit tizimi quyidagi asosiy maqsadlarga xizmat qiladi:

Moliyaviy va operatsion jarayonlarning to'g'ri ishlashini ta'minlash;

Xatolar, firibgarlik va moliyaviy risklarni aniqlash;

Bank resurslaridan samarali foydalanishni nazorat qilish;

Ichki nazorat jarayonlarini mustahkamlash.

Bank xarajatlari va ularning tasnifi

Banklarda xarajatlarni nazorat qilish ichki auditning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xarajatlar tasnifi turli omillarga asoslanadi va ular bank faoliyatining har xil jihatlarini qamrab oladi. Bank xarajatlari odatda quyidagilarga bo'linadi.

➤ Ma'muriy xarajatlar. Ofis ijarasi, xodimlar maoshi, elektr energiyasi, xizmat ko'rsatish xarajatlari va boshqa kundalik operatsiyalar xarajatlari.

➤ Moliyaviy xarajatlar. Bankning kredit va depozit operatsiyalari, foiz to'lovleri va boshqa moliyaviy majburiyatlar bilan bog'liq xarajatlar.

➤ Texnologik xarajatlar. Axborot texnologiyalari va infratuzilma xarajatlari, shu jumladan dasturiy ta'minot, serverlar, IT infratuzilmani yangilash va texnik qo'llab-quvvatlash.

➤ Kapital xarajatlar. Asbob-uskunalar, binolar va boshqa moddiy aktivlarni sotib olishga sarflanadigan mablag'lar.

Xarajatlarni to'g'ri tasniflash va ularga to'liq nazorat o'rnatish bank moliyaviy faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarurdir. Ichki audit jarayonida xarajatlar turli ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholanadi.

Ichki audit tizimi orqali bank xarajatlarini nazorat qilish bir necha bosqichlarda amalgalashiriladi.

1. Xarajatlarni rejalahtirish va byudjetlash

Ichki audit tizimining birinchi bosqichi xarajatlarni rejalahtirish va byudjetlashdan boshlanadi. Bankning moliyaviy va operatsion rejalarini ichki auditorlar tomonidan ko'rib chiqiladi, ortiqcha xarajatlarni oldini olish va resurslarni samarali taqsimlash maqsadida rejalahtirilgan xarajatlar tahlil qilinadi. Byudjetning samarali nazorati bank moliyaviy barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

2. Xarajatlarning samaradorligini tahlil qilish

Ichki audit xarajatlarning samaradorligini o'rganish orqali bankning moliyaviy resurslaridan to'g'ri foydalanayotganini baholaydi. Xarajatlar bank faoliyatining har bir sohasida tahlil qilinib, ularning bankka bo'lgan ta'siri baholanadi. Bu tahlil xarajatlarning haqiqiy zaruriyatini aniqlash va ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

3. Risklarni boshqarish

Bankning ichki audit tizimi orqali xarajatlar nazorati doirasida risklarni aniqlash va ularni boshqarish muhim jarayondir. Xarajatlar bank uchun turli moliyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, xodimlar bilan bog'liq xarajatlar maqsadsiz oshishi yoki yangi texnologiyalarga ortiqcha mablag' sarflanishi xavflarni kuchaytirishi mumkin. Ichki audit bu xavflarni aniqlab, ularning oldini olish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

4. Ichki nazorat jarayonlarini kuchaytirish

Ichki audit tizimi bank ichida samarali nazorat mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Har qanday jarayonda, xususan xarajatlar nazoratida ichki nazorat tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali bank xarajatlari haqida real vaqtida ma'lumot olinadi, resurslar samarali taqsimlanadi va moliyaviy jarayonlar kuzatib boriladi. Xarajatlar bilan bog'liq moliyaviy xatoliklar va firibgarliklar ichki nazorat tizimi orqali o'z vaqtida aniqlanadi va oldi olinadi.

5. Moliyaviy hisobotlarni tekshirish

Xarajatlar nazorati jarayonida ichki audit moliyaviy hisobotlarni tekshiradi. Bu jarayonda bankning barcha moliyaviy faoliyati va xarajatlari aniq aks ettirilishi ta'minlanadi. Moliyaviy hisobotlar orqali har bir xarajat turi haqida batafsil ma'lumot olinadi va ularning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi.

AT Xalq banki misolida ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish

Xalq banki kabi yirik moliyaviy institatlarda ichki audit tizimi samaradorligi yuqori darajada saqlanadi. Xalq banki ichki audit tizimi xarajatlarni samarali nazorat qilish orqali moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Bankning ichki audit bo‘limi barcha moliyaviy operatsiyalarni kuzatib boradi va har qanday moliyaviy xatolarni tezda aniqlaydi.

Xalq banki misolida ichki audit xarajatlarni kamaytirish, ortiqcha sarflar oldini olish va maqsadli resurs taqsimotini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Bankning ma’muriy, moliyaviy va texnologik xarajatlari ichki audit tizimi orqali muntazam ravishda tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Bank tomonidan olib borilayotgan audit jarayonlari moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va ortiqcha xarajatlarni minimallashtirishga yordam beradi.

Banklarda ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish bank faoliyatini samarali boshqarishning muhim yo‘llaridan biridir. Ichki audit bank operatsiyalari va moliyaviy jarayonlarni tahlil qilib, ular bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Xarajatlarni rejalashtirish, ularni nazorat qilish va risklarni boshqarish ichki audit jarayonida eng muhim o‘rinni egallaydi. Xalq banki misolida ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish samaradorlikni oshirish va moliyaviy xavflarni minimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Banklarda ichki audit tizimining to‘g‘ri ishlashi moliyaviy barqarorlikka erishish va umumiy faoliyat samaradorligini ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa

Banklarda ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki audit xarajatlarni nazorat qilish va boshqarish jarayonlarida bankning moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi. Bu jarayon byudjetlarni to‘g‘ri rejalashtirish, xarajatlarning samaradorligini baholash, risklarni aniqlash va ularni boshqarish, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish hamda moliyaviy hisobotlarni muntazam tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Xalq banki misolida ichki audit tizimining samaradorligini ko‘rsatish orqali banklarda ichki audit xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy xatoliklar va firibgarliklarning oldini olishda muhim vosita ekanligi isbotlanadi. Xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish, risklarni boshqarish jarayonlarini ichki audit tizimi orqali tashkil etish nafaqat moliyaviy xavflarni kamaytirishga, balki bankning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga ham yordam beradi.

Shu bois ichki audit tizimi banklarning moliyaviy faoliyatida eng zarur vositalardan biri bo'lib, u orqali banklarning ortiqcha xarajatlari kamayadi, moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi va moliyaviy jarayonlar izchil va samarali tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Andreeva, V. G. (2017). Bank ichki auditi va nazorat tizimlari. Moskva: Finansy va kredit nashriyoti.
2. Chirkov, V. A., & Savkina, O. I. (2018). Banklarda moliyaviy boshqaruv va audit tizimi. Sankt-Peterburg: Ekonomika universiteti nashriyoti.
3. Dunning, M. (2019). Internal Audit Practices in Financial Institutions. New York: McGraw-Hill.
4. ICAEW (2020). The Role of Internal Audit in Controlling Costs in Financial Institutions. London: ICAEW Publishing.
5. Reider, H. R. (2021). Operational Auditing Handbook. Hoboken: John Wiley & Sons.

Aksiyadorlik jamiyatlarining evolyutsiyasi, funktsiyasi va zamonaviy iqtisodiy tizimlarga ta'siri.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi
Shohonov Safarmurod

Annotatsiya: Ushbu tezis zamonaviy kapitalizmni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan aktsiyadorlik jamiyatlarining tarixiy rivojlanishi, tashkiliy tuzilishi va iqtisodiy ta'sirini o'rganadi. Ularning dastlabki savdo korxonalaridan zamonaviy transmilliy korporatsiyalargacha bo'lgan evolyutsiyasini ko'rib chiqish orqali tezis aktsiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari, jumladan kapitalni oshirish, javobgarlikni cheklash va investitsiyalarni rag'batlantirish qobiliyatini o'rganadi. Bundan tashqari, tezisda ushbu kompaniyalar duch keladigan tartibga solish va axloqiy muammolar muhokama qilinadi va ularning global iqtisodiy rivojlanish va korporativ boshqaruvga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatları, Kapitalizm, Korporativ boshqaruv, Iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, huquqiy maqom, korporativ ijtimoiy ma'suliyat, bozor ta'siri, tarixiy rivojlanishi.

Aksiyadorlik jamiyati 16-17-asrlarda Evropada, xususan, Gollandiya Sharqiy Hindiston kompaniyasi (VOC) va Britaniya Sharqiy Hindiston kompaniyasi kabi yirik savdo kompaniyalarining yuksalishida ildiz otgan. Ushbu kompaniyalar xorijdagi qidiruv kabi xavfli korxonalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynagan, bu esa har qanday shaxs yoki oila taqdim eta oladigan kapitaldan ko'proq mablag' talab qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy asoslari korporativ nizomlarning ishlab chiqilishi bilan vujudga keldi, bu esa ushbu korxonalarga o'z aktsiyadorlaridan alohida yuridik shaxs sifatida mavjud bo'lish imkonini berdi. Ushbu yangilik kompaniyalarga abadiy mavjudlik berdi va ularga o'z ta'sischilarining hayotidan tashqarida omon qolish imkonini berdi. 19-asrda mas'uliyati cheklangan jamiyatning rivojlanishi kapitalistik iqtisodlarning markaziy tayanchi sifatidagi aksiyadorlik jamiyati maqomini yanada mustahkamladi.

18-19-asrlardagi sanoat inqilobi aksiyadorlik jamiyati modelining rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Temir yo'llar qurilishi va yirik ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish kabi ulkan infratuzilma loyihalari katta miqdordagi kapitalni talab qildi, ularni faqat aktsiyalarni keng investorlar puliga sotish orqali jalb qilish mumkin edi.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

Aksiyadorlik jamiyatlarining asosiy xususiyati ularning alohida yuridik shaxs sifatidagi maqomidir. Bu ularga aktivlarga egalik qilish, majburiyatlarni olish va o'z nomidan shartnomalar tuzish imkonini beradi. Aktsiyadorlar qisman egalari sifatida dividendlar olish va asosiy korporativ qarorlar qabul qilishda so'z huquqiga ega, odatda aksiyadorlar yig'ilishlarida ovoz berish huquqi orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv kompaniya boshqaruvini nazorat qilish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklangan direktorlar kengashi atrofida tuzilgan. Ushbu boshqaruv modeli aktsiyadorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini muvozanatlashtiradi, garchi manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin, bu esa boshqaruv muammolariga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari kompaniyadagi o'z kapitali evaziga investorlarga aktsiyalarni chiqarish orqali kapitalni jalb qiladi. Ushbu kapital tuzilmasi kompaniyalarga yirik loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi, shu bilan birga aktsiyadorlarga dividendlar yoki kapital daromadlari orqali o'z investitsiyalaridan daromad keltiradi. Aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun o'z mablag'larini moliyalashtirishdan tashqari ko'pincha obligatsiyalar chiqaradi yoki qarz oladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapital bozorlarini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini berdi. Aktsiyadorlik jamiyatlari kompaniyalarga katta kapital mablag'larini jalb qilish imkonini berib, texnologik innovatsiyalar, infratuzilmani rivojlantirish va jahon savdosini moliyalashtirishda muhim rol o'yndaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari hajmi va ta'sirining o'sishi bilan ko'pchilik ko'plab mamlakatlarda faoliyat yuritadigan transmilliy korporatsiyalarga aylandi. Bu kompaniyalar global savdo, bandlik va investitsiyalarda muhim rol o'yndaydi. Ular iqtisodiy foyda keltirsa-da, ular korporativ kuch, soliqdan qochish va mehnat amaliyoti haqida ham tashvish uyg'otadi.

Zamonaviy aktsiyadorlik jamiyatlari jamiyat va atrof-muhitga ta'sirini ko'proq hisobga olishlari kutilmoqda. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KSS) zamonaviy biznesning muhim jihatiga aylandi, kompaniyalar axloqiy va barqaror harakat qilish uchun bosimga duch keldi. Ushbu bob aktsiyadorlik jamiyatlarining xulq-atvorini va ularning manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda KSM ning rolini o'rganadi.

Aktsiyadorlik jamiyatlari afzalliklariga qaramay, kamchiliklardan xoli emas. Enron va Lehman Brothers kabi holatlarda kuzatilgan korporativ boshqaruvdagi muvaffaqiyatsizliklar noto'g'ri boshqaruv xavfi va aktsiyadorlar va rahbarlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini ta'kidlaydi. Ushbu bobda boshqaruvning umumiy muammolari va ularning aksiyadorlar va kengroq iqtisodiyot uchun oqibatlari tahlil qilinadi.

Ko'pgina aktsiyadorlik jamiyatlarining global tabiatи tartibga solishda qiyinchiliklar tug'diradi, chunki hukumatlar chegaralar orqali qonunlarni amalga oshirish uchun kurashadilar. Soliqlardan qochish, korporativ monopoliyalar va atrof-muhitning degradatsiyasi kabi muammolar ko'pincha transmilliy aktsiyadorlik jamiyatlarini yanada ko'proq tartibga solish talablarini keltirib chiqaradi.

Aktsiyadorlik jamiyatlari foyda olish va ijtimoiy mas'uliyatni muvozanatlashda axloqiy dilemmalarga duch keladi. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, aktsiyadorlar qiymatiga e'tibor ko'pincha atrof-muhitni ekspluatatsiya qilish, mehnatni suiiste'mol qilish va jamiyat farovonligiga e'tibor bermaslik kabi zararli amaliyotlarga olib keladi. Ushbu bo'limda ushbu axloqiy tashvishlar va aktsiyadorlik jamiyatlarining jamoat manfaatini rag'bathlanirishdagi roli haqida davom etayotgan munozaralar muhokama qilinadi.

Aktsiyadorlik jamiyati iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarning kuchli dvigateli bo'lib, alohida investorlar uchun xavfni cheklab, katta miqdordagi kapitalni jalb qilish mexanizmini ta'minladi. Biroq, bu model korporativ boshqaruv, tartibga solish va etika bilan bog'liq jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikka ijobiy hissa qo'shishda davom etishini ta'minlash uchun qator islohotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Bularga korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, transmilliy kompaniyalar ustidan tartibga soluvchi nazoratni yaxshilash va korporativ xatti-harakatlarni jamiyat maqsadlariga moslashtiruvchi KSS amaliyotlarini ilgari surish.

Aktsiyadorlik jamiyatlari global iqtisodiy tizimning muhim qismi bo'lib qoladi. Biroq, ularning taraqqiyotga erishish qobiliyati ularning ijtimoiy va atrof-muhitga ta'siriga ko'proq e'tibor qaratish bilan muvozanatli bo'lishi kerak. Ko'proq mas'uliyatli biznes amaliyotlarini qabul qilish va mustahkam boshqaruv standartlariga rioya qilish orqali aktsiyadorlik jamiyatlari barqaror va adolatli kelajakni shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berle, A. A., & Means, G. C. (1932). "The Modern Corporation and Private Property."

Aksiyadorlik jamiyatlari va korporativ boshqaruvni tahlil qiluvchi muhim kitoblardan biri.

2. Chandler, A. D. (1977). "The Visible Hand: The Managerial Revolution in American Business."

Ushbu kitob menejerlikning korporativ boshqaruvda qanday rol o'ynashini ko'rsatadi.

3. Scott, A. (2009). "Corporate Social Responsibility and the Role of Corporations in Society."

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KSS) va kompaniyalarning jamiyatdagi vazifalari haqidagi nazariyalarni o'rghanadi.

4. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure."

Aksiyadorlar va menejment o'rtasidagi agentlik masalalarini tahlil qiluvchi klassik asar

5. Kindleberger, C. P. (1984). "A Financial History of Western Europe."

Ushbu kitob Evropa moliya tarixini aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

6. Friedman, M. (1970). "The Social Responsibility of Business is to Increase its Profits."

Korporativ axloqiy masalalar va korporatsiyalarning foyda olish bilan bog'liq yondashuvlarini tahlil qiluvchi maqola.

7. Stiglitz, J. E. (2012). "The Price of Inequality."

Zamonaviy kapitalizm va korporativ amaliyotlar, jumladan aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy o'sish va tengsizlikka ta'siri.

8. Micklethwait, J., & Wooldridge, A. (2003). "The Company: A Short History of a Revolutionary Idea."

**ENDOKRIN OFTALMOPATIYADA
KO'Z OLMASINING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARINI
BAHOLASH**

Sarvarxon Akmaljon o'g'li Yuldashov

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Odam anatomiyasi va OXTA kafedrasi doktoranti.

Toshkent. O'zbekiston.

sarvar.yuldashov.91@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-7351-5775>

Annotatsiya. Endokrin oftalmopatiya (sinonimlari: tireoid oftalmopatiya, Greyves orbitopatiyasi) o'z ichiga orbita yumshoq to'qimalaridagi patologik o'zgarishlar va bir nechta mustaqil klinik simptomlardan tashqari distireoid neyrooptikopatiya ya'ni ko'ruv nervidagi o'zgarishlarni ham qamrab oluvchi murakkab tushuncha hisoblanadi [1,3]. Bugungi kunga kelib endokrin oftalmopatologiyalarning, xususan tireotoksikoz kasalligining ko'z olmasi qavatlarida yuzaga keltiruvchi o'zgarishlarni baholash uchun noinvaziv, kontaksiz diagnostik metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda [5,6,8]. Buning uchun maxsus kontaksiz skanerlovchi apparat yordamida ko'z olmasi qavatlarini optik biopsiyasini 3D formatda shakllantiruvchi zamonaviy diagnostik apparatlar yaratilmoqda [2,4,7]. OKT- optik kogerent tomografiya usuli orqali ko'z olmasining qon tomirli qavati, to'r parda va ko'ruv nervi diskidagi morfologik o'zgarishlarni erta tashxislash imkoniyati mavjud [9,10]. Mazkur tadqiqot davomida tireotoksikoz foni dagi endokrin oftalmopatiya (EOP) tashxisli 72 nafar bemorlarda ko'z olmasining qon tomirli qavati (xorioidea), ko'ruv nervi diskini va retinal nerv tolalar qavatining holatini optik kogerent tomografiya (OKT) tekshiruvi natijalari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tireotoksikoz, endokrin oftalmopatiya, optik biopsiya, OKT- optik kogerent tomografiya, xorioidea qalinligi, makulyar shish, optik neyropatiya.

Tadqiqot maqsadi: Tireotoksikoz bilan kasallangan endokrin oftalmopatiya kuzatilgan bemorlarda kontaksiz-noinvaziv biopsiya usuli hisoblangan - optik kogerent tomografiya (OKT) yordamida ko'z olmasining qon tomirli qavati, to'r parda va ko'ruv nervi diskidagi morfometrik ko'rsatkichlarni o'rganish.

Tadqiqot materiali va metodi: Klinik tadqiqot assosiy guruhini EOP kompensatsiya, subkompensatsiya va dekompensatsiya bosqichidagi 72 nafar (n=72 yoki 144 ta ko'z) bemorlar tashkil qildi.

Akademik Y.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi Farg'onada filiali (RIEIA TMFF)da 2020-2024 yillar davomida tireotoksikoz fonidagi EOP bilan davolangan bemorlar ilmiy tadqiqotning guruhlarini tashkil qildi. Xorioidea, to'r parda va ko'rvuv nervi diskidagi morfometrik ko'rsatkichlar REVO 60 Spectral Domain OCT (OPTOPOL Technology, Zawiercie, Poland) apparati yordamida tekshirildi.

Tadqiqot natijasi. Tadqiqot davomida EOP bilan kasallangan bemorlar va klinik sog'lom shaxlar ko'z olmasining xorioidea, to'r parda va ko'rvuv nervi diskidagi morfometrik ko'rsatkichlari OKT (optik kogerent tomografiya) tekshiruvi asosida o'zaro taqqoslandi. Asosiy guruhning kompensatsiya bosqichidagi 30 nafar (n=30) va subkompensatsiya bosqichidagi 36 nafar (n=36) bemorlar OKT tekshiruvi tahlil qilinganda neyroretinal halqa va ekskavatsiyaning miqdoriy o'zgarishi deyarli kuzatilmadi lekin subkompensatsiya bosqichidagi bemorlarda intraretinal shish hisobiga pastki sektorlarda peripapillyar shish aniqlandi ($p < 0,05$). Shuningdek, dekompensatsiya bosqichida ikkilamchi atrofiya tufayli nerv tolalari qalinligi keskin kamayganligi ($p < 0,01$) qayd etildi. Buning asosiy patogenetik sabablari sifatida periorbital yumshoq to'qimalardagi shish va ko'rvuv nervi diskidagi mahalliy gipoksik-ishemik jarayonlarni ko'rsatish mumkin

Xulosa. Tadqiqot natijasiga ko'ra, tireotoksikoz fonida xorioidea, to'r parda va ko'rvuv nervi diskini morfometrik ko'rsatkichlari o'zgarishini optik kogerent tomografiya diagnostik metodi yordamida baholash mumkinligi tasdiqlandi. Shuningdek, klinik amaliyotda bu turdagи zamonaviy, noinvaziv optik biopsiya metodidan tireoid assotsirlangan oftalmopatiyalarda optik neyropatiya rivojlanishida morfometrik o'zgarishlarni kuzatish va davolash samaradorligini dinamik baholash uchun indikator sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozturk, B. T., Kerimoglu, H., Dikbas, O., Pekel, H., & Gonen, M. S. (2009). Ocular changes in primary hypothyroidism. *BMC Research Notes*, 2(1), 266.
<https://doi.org/10.1186/1756-0500-2-266>

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

2. Бровкина А.Ф. Эндокринная офтальмопатия. –М.:ГЕОТАР-Медиа, 2008.-184 с. (in Russ)
3. Лихванцева В.Г., Трубилин В.Н., Коростелёва Е.В., Капкова С.Г., Выгодин В.А. Морфометрические показатели сетчатки при первичном гипотиреозе и первичном тиреотоксикозе. *Офтальмология*. 2022;19(1):133-140. <https://doi.org/10.18008/1816-5095-2022-1-133-140> (in Russ)
4. Ткачук В.А. Введение в молекулярную эндокринологию. М.: МГУ, 1983. (in Russ)
5. Шпак А.А. Спектральная оптическая томография высокого разрешения. Атлас. –М.:Медицина,2011.-44с. (in Russ)
6. Yu, L., Jiao, Q., Cheng, Y., Zhu, Y., Lin, Z., & Shen, X. (2020). Evaluation of retinal and choroidal variations in thyroid-associated ophthalmopathy using optical coherence tomography angiography. *BMC ophthalmology*, 20(1), 421. <https://doi.org/10.1186/s12886-020-01692-7>
7. Rajabi, M. T., Ojani, M., Riazi Esfahani, H., Tabatabaei, S. Z., Rajabi, M. B., & Hosseini, S. S. (2018). Correlation of peripapillary nerve fiber layer thickness with visual outcomes after decompression surgery in subclinical and clinical thyroid-related compressive optic neuropathy. *Journal of current ophthalmology*, 31(1), 86–91. <https://doi.org/10.1016/j.joco.2018.11.003>
8. Çalışkan, S., Acar, M., & Gürdal, C. (2017). Choroidal Thickness in Patients with Graves' Ophthalmopathy. *Current eye research*, 42(3), 484–490. <https://doi.org/10.1080/02713683.2016.1198488>
9. Sezer, T., Altınışık, M., Koytak, İ. A., & Özdemir, M. H. (2016). The choroid and Optical coherence tomography. *TüRk Oftalmoloji Dergisi*, 46(1), 30–37. <https://doi.org/10.4274/tjo.10693>
10. Lavers, H., & Zambarakji, H. (2014). Enhanced depth imaging-OCT of the choroid: a review of the current literature. *Graefe's archive for clinical and experimental ophthalmology = Albrecht von Graefes Archiv fur klinische und experimentelle Ophthalmologie*, 252(12), 1871–1883. <https://doi.org/10.1007/s00417-014-2840-y>
11. Agrawal, R., Gupta, P., Tan, K. A., Cheung, C. M., Wong, T. Y., & Cheng, C. Y. (2016). Choroidal vascularity index as a measure of vascular status of the choroid: Measurements in healthy eyes from a population-based study. *Scientific reports*, 6, 21090. <https://doi.org/10.1038/srep21090>

МАФКУРАВИЙ ТАХДИДНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ МОҲИЯТИ ВА ГЛОБАЛИЗАЦИОН ХУСУСИЯТИ

Сардор Ашурев

Тадқиқотчи

Тошкент давлат шарқшунослик университети

Аннотация: Мазкур мақолада мафкуравий таҳдиднинг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва унинг глобаллашув шароитидаги хусусиятлари таҳлил қилинади. Мафкуравий таҳдид жамиятнинг маънавий қадриятлари ва барқарорлигига таҳдид солувчи ёт фояларнинг тарқалиши ва уларнинг ижтимоий оқибатлари очиб берилган. Шунингдек, глобализация жараёнининг мафкуравий таҳдидларга таъсири кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: мафкуравий таҳдид, ижтимоий-сиёсий моҳият, глобализация, маънавий қадриятлар, ахборот уруши.

Мафкуравий жаҳдид — ижтимоий-сиёсий ҳаракат, оқим ёки сиёсий куч ўз манфаатини ифодаловчи мафкурасини қўрқитув, зўрлик йўли билан бошқаларга тиқишириш эканлиги борасидаги таъриф мавжуд. Маънавий таҳдид жамият, давлат ёки халқ, миллат ёки элат тақдирига хавф солиб турган, фожеали оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган мафкуравий хавф-хатарлар мажмуасидир. Ўзбекистонда инсонпарвар, демократик жамият қурилаётган ҳозирги шароитда фуқаролар онги ва фаолиятига сиёсий экстремизм, диний ва фундаментализм, этник ва миллатлараро зиддиятлар, коррупция ва жиноятчилик, маҳаллийчилик ва уруғ-аймоқчилик, экологик муаммолар, бир жинсли никоҳларни, ғарбда хозирги вақтда кенг тарқалаётган, вояга етмаган болаларга ўз жинсини ўзи танлаш ҳуқуқини бериш, боласиз оила сингари ёт фоялар мафкуравий таҳдид шаклида намоён бўлаётир.

Мафкуравий таҳдид жамият, давлат ёки халқ, миллат ёки элат тақдирига хавф солиб турган, фожиали оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган мафкуравий хавф-хатарлар мажмуаси. Дунёнинг айрим ҳудудларида ана шундай ҳаракатлар натижасида маънавий йўқотишлар юз бераётгани, миллатнинг асрий қадриятлари, миллий тафаккури ва турмуш тарзи издан чиқаётгани, ахлоқ-одоб, оила ва жамият ҳаёти онгли

яшаш тарзи жиддий хавф остида қолаётганини кузатиш мумкин. Ўзбекистон ҳам бундай таҳдидлардан четда қолаётганий йўқ.²⁶

Мафкуравий таҳдид ўз моҳиятидан келиб чиқиб, энг аввало, инсон онгига, тафаккури ва хулқ-авторига хавф-хатар солмоқда. Инсон онги ва қалбини вайронкор ва бузғунчи ғоялар билан издан чиқаришга ҳаракат қилиш мафкуравий таҳдиднинг энг асосий мазмун-моҳиятини белгилайди. Мафкуравий таҳдид муайян жамият аъзоларини ягона мақсад ва муддаолардан чалғитиб, миллий менталитетга мос келмайдиган бегона ғоялар, фикрлар, мақсадлар ва қарашларни четдан туриб экспорт қилиш жараёнида ўзини янада аниқроқ намоён қиласди.²⁷

Мафкуравий таҳдид — бу жамият ёки давлатнинг маънавий ва маданий қийматларига, дунёқарашига ва ижтимоий-сиёсий тартибига хавф солувчи ғоявий, ахборот ва мафкуравий таъсирлардир. Бу таҳдидлар жамиятнинг асосий қадриятларига ҳужум қилиб, унинг ижтимоий барқарорлигини бузишга қаратилган. Ижтимоий-сиёсий моҳият жиҳатидан мафкуравий таҳдид қўйидагилардан иборат, яъни:

1. Ижтимоий бузилишлар: Жамиятда турли ғоялар тарқалиб, унинг бирдамлиги ва барқарорлиги заифлашади. Мафкуравий таҳдидлар миллатнинг ёки давлатнинг бирликка асосланган ижтимоий тузилмасини бузишга ҳаракат қиласди.

2. Маънавий таназзул: Ташки ёки ички таҳдидлар жамиятнинг маънавий қадриятларини заифлаштиради. Одатда миллий қадриятлар, анъаналар ва дунёқарашларга қарши ёки уларни менсимайдиган мафкуралар пайдо бўлади.

3. Сиёсий барқарорликка таҳдид: Мафкуравий таҳдидлар давлатнинг сиёсий тизимиға таъсир этиши мумкин. Бирор давлат ёки гурух бошқа давлатда ёки жамиятда мафкуравий воситалар орқали сиёсий барқарорликни бузишга ҳаракат қиласди. Бу ўз навбатида ички низоларга ва сиёсий бекарорликка олиб келиши мумкин.

4. Мафкуралар кураши: Давлатлар ва ижтимоий гурухлар ўз манфаатлари ва ғояларини тарқатиш орқали бошқа жамиятларга таъсир ўтказади. Турли мафкуралар ўртасидаги қарама-қаршиликлар ижтимоий ва сиёсий можароларни кучайтиради.

26 Мафкуравий таъсир. Мафкуравий тажовуз. Мафкуравий таҳдид. <https://oyina.uz/kiril/teahause/1851>

27 <https://staff.tiiame.uz/storage/users/409/books/ONdDkaA0SQEqxk10SQHLIChNTnU17rgWzaWmmaoy.pdf>

Бугунги даврга чукур назар ташлайдиган бўлсак, у ўзининг барча хусусиятлари билан олдинги даврлардан кескин фарқ қилишига ҳамда оралиқ босқичларининг ниҳоятда қисқа давом этиши ва тез ўзгарувчанилигига амин бўламиз. Жумладан, собиқ совет империяси ва социализм лагерининг емирилиши икки қутбли дунёning барҳам топиши билан якунланди ва кўп қутбли дунёning шаклланиши учун шарт-шароит туғилди. Бироқ у тез орада янги ўта мураккаб ва қарама-қаршиликларга ниҳоятда бой вазият билан алмашинди. Бу даврнинг энг асосий ўзига хослиги шундан иборатки, у халқаро глобаллашув жараёнларининг ўта зиддиятли тус олганлиги билан ажralиб туради.²⁸

Глобализация бугунги кунда турли мамлакатлар ва маданиятлар ўртасидаги алоқаларни мустахкамлаб, ахборот оқимини чексиз қилаётган жараён ҳисобланади. Бу жараён мафкуравий таҳдидларни кучайтириши мумкин, чунки турли ғоялар ва қадриятлар тарқалиши осонлашади. Глобализациянинг мафкуравий таҳдидга таъсири қўйидагича намоён бўлади:

1. Маданий яккалаш (унификация): Глобализациянинг таъсири остида кўплаб миллатларнинг ўзига хос маданий хусусиятлари глобал маданият томонидан сўндирилиб, улар якка қиёфага келтирилади. Бу миллатларнинг ўз миллий қадриятларини йўқотишига ва ғарб маданиятининг устунлик қилишига олиб келади.
2. Ахборот тарқалишининг тезлиги: Глобализация жараёнида интернет ва оммавий ахборот воситалари орқали мафкуравий ғояларни тез тарқатиш мумкин бўлиб қолди. Турли мамлакатлардаги инсонлар турли ғояларга ва мафкуралар таъсирига осонлик билан тушиб қолмоқда.
3. Турли мафкуралар ўртасидаги кураш: Глобализация жараёнида турли мафкуравий қарашлар ўртасида кескин рақобат кучаяди. Бир давлат ёки жамият бошқасига ўз гоявий таъсирини ўтказиш учун маълум бир мафкуравий воситалардан фойдаланади.
4. Ахборот уруши: Глобализация ахборот уруши тушунчасини ҳам кучайтириди. Дунё миқёсида ахборот оқими устидан назорат қилиш орқали маълум бир давлат ёки гурӯҳлар бошқаларнинг фикри ва дунёқарашига таъсир ўтказишга уринади. Ахборот урушида сохта (фейк) хабарлар, тарғибот, ташвиқот ва сездирмай бошқариш (манипуляция) мафкуравий қуроллар сифатида ишлатилади.

²⁸ Ўша ерда

5. Мафкуравий ҳужумлар: Глобализация турли давлатларнинг ўз мафкурасини глобал миқёсда кенг тарқатишига йўл очади. Масалан, сиёсий, иқтисодий ёки маданий мафкуралар ахборот орқали бошқа жамиятларга кириб боради ва уларнинг ички тартибиға таъсир қилади.

Хулоса қилиб айтганда, глобализация мафкуравий таҳдидларнинг тез тарқалишига ва кучайишига ёрдам беради. Жамият ёки давлатлар ўз миллий қадриятларини ва мафкурасини ҳимоя қилиш учун бу жараёнга қарши туриш механизмларини ишлаб чиқишига мажбур бўладилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Пахруддинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдида. Тошкент: 2001, 178-б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил, 28 декабрь.

3.М. Н. Ҳасанов, С. У. Бошмонов, & Т. О. Жонибеков (2022). Абу Наср Форобийнинг илм-фанлар таснифида аҳлоқий ва диний қарашларининг таҳлили. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 608-613.

4. Ж. С. Раматов, & М. Н. Ҳасанов (2022). Абу Наср Форобийнинг жаҳон илм-фан тараққиётига қўшган хиссаси ва унинг бугунги кундаги аҳамияти. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.

5. Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). Янги Ўзбекистон тараққиёти босқичида ёшларнинг маънавий ва маданиятини юксалтиришнинг устивор вазифалари. Academic research in educational sciences, 3 (6), 791-798.

MOLIYA BOZORINING KELAJAK ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ ФИНАНСОВОГО РЫНКА НА БУДУЩЕЕ

FUTURE PROSPECTS OF THE FINANCIAL MARKET

Jumayev Islombek Akram o'g'li

Chet el kapitali ishtirokidagi

"Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki

islom.jumayev.98@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari, raqamli texnologiyalarning ta'siri va kelajak istiqbollari tahlil qilingan. Global moliya bozorlarining transformatsiyasi, innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning paydo bo'lishi, hamda barqaror moliya tizimining shakllanishi masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, raqamlashtirish, fintech, kriptovalyutalar, raqamli bank, moliyaviy innovatsiyalar

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития финансового рынка, влияние цифровых технологий и перспективы на будущее. Исследованы вопросы трансформации мировых финансовых рынков, появления инновационных финансовых продуктов и услуг, а также формирования устойчивой финансовой системы.

Ключевые слова: финансовый рынок, оцифровка, финтех, криптовалюты, цифровой банкинг, финансовые инновации

Abstract. This article analyzes the development trends of the financial market, the impact of digital technologies and the prospects for the future. The issues of transformation of Global financial markets, the emergence of innovative financial products and services, as well as the formation of a stable financial system are studied.

Keywords: financial market, digitization, fintech, cryptocurrencies, digital banking, financial innovation

KIRISH

Zamonaviy moliya bozori tez sur'atlar bilan o'zgarmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi va global integratsiya jarayonlari moliya bozorining kelajak qiyofasini belgilab bermoqda [1]. Bu o'zgarishlar moliya bozorining an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy moliya bozorining asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va uning kelajak istiqbollarini tahlil qilishdan iborat.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va prognozlash usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida ilmiy tadqiqotlar, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari va ekspert baholaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- Moliya bozorining nazariy asoslari
- Raqamli moliya va fintech
- Moliyaviy innovatsiyalar
- Global moliya bozori tendensiyalari

NATIJALAR

Tadqiqotlar natijasida moliya bozorining kelajagini belgilovchi uch asosiy tendensiya aniqlandi.

Birinchi tendensiya - raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar. Bu yo'nalishda blockchain texnologiyalarining joriy etilishi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirmoqda va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirmoqda. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish risk-menejmentni takomillashtirish va mijozlar bilan ishslashning yangi usullarini yaratish imkonini bermoqda. Raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi esa moliyaviy xizmatlarning tezligi va qulayligini yangi bosqichga olib chiqmoqda [2].

Ikkinchchi tendensiya - moliyaviy xizmatlarning transformatsiyasi. Neobanklarning paydo bo'lishi an'anaviy bank xizmatlarini tubdan o'zgartirmoqda. Peer-to-peer kreditlash platformalari kredit olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda va kredit bozorini

demokratlashtirishga xizmat qilmoqda. Raqamli aktivlar bozorining shakllanishi esa yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratmoqda [3].

Uchinchi tendensiya - barqaror moliya tizimining rivojlanishi. "Yashil" obligatsiyalar bozorining o'sishi ekologik loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynamoqda. ESG investitsiyalarning kengayishi investorlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirmoqda. Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar hajmining ortishi esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilmoqda [4].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Moliya bozorining kelajagi bir necha muhim omillar ta'sirida shakllanmoqda va bu jarayonni chuqur tahlil qilish zarur.

Raqamli texnologiyalar ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, ular moliyaviy xizmatlarni taqdim etish modellarini tubdan o'zgartirmoqda. Fintech kompaniyalar an'anaviy moliya institutlariga jiddiy raqobat yaratmoqda, bu esa bank sektori va moliya bozorlarining transformatsiyasini tezlashtirmoqda [5]. Raqamli texnologiyalar moliyaviy xizmatlarning narxini pasaytirish va ularning geografik qamrovini kengaytirish imkonini bermoqda [6].

Global moliya arxitekturasining o'zgarishi ham muhim tendensiya hisoblanadi. Kriptovalyutalar va raqamli aktivlar an'anaviy moliya tizimiga tobora ko'proq integratsiya qilinmoqda. Markaziy banklar raqamli valyutalarni joriy etish bo'yicha faol izlanishlar olib bormoqda. Bu jarayon global moliya tizimining yangi arxitekturasini shakllantirishga xizmat qilmoqda [7].

Barqaror rivojlanish tamoyillarining moliya bozoriga ta'siri ham kuchaymoqda. Investorlar ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilmoqda. Bu esa moliya bozorining yangi segmentlari - "yashil" moliyalashtirish, ijtimoiy obligatsiyalar va barqaror rivojlanish obligatsiyalari bozorlarining rivojlanishiga olib kelmoqda [8].

Moliyaviy xizmatlarning personallashuvi alohida e'tiborga loyiq tendensiya hisoblanadi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari mijozlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlarni yaratish imkonini bermoqda [9]. Bu esa moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar tajribasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tendensiyalar moliya bozorining keljakda yanada samarali, inkluziv va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi [10]. Biroq, bu jarayonda yangi risklar va muammolar ham

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10 Oktyabr 2024

paydo bo'lmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va moliyaviy barqarorlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Moliya bozorining kelajak istiqbollari tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Raqamli texnologiyalar moliya bozorining asosiy drayveri bo'lib qoladi. Blockchain, sun'iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalar moliyaviy xizmatlarning yangi avlodini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.
2. An'anaviy moliya institatlari va fintech kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi. Bu esa yangi moliyaviy ekotizimning shakllanishiga olib keladi.
3. Barqaror moliya tamoyillari moliya bozorining ajralmas qismiga aylanadi. "Yashil" moliyalashtirish va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshadi.
4. Moliyaviy xizmatlarning globallashuvi va raqamlashuvi davom etadi, bu esa moliya bozorining yanada samarali va inkluziv bo'lisligha xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, J. (2023). The Future of Financial Markets. London: Finance Press.
2. Иванов, А. (2023). Цифровизация финансового рынка. Москва: Финансы и статистика.
3. Karimov, A. (2023). Moliya bozorlarida innovatsiyalar. Toshkent: Iqtisod.
4. Wilson, M. (2023). Sustainable Finance and Investment. New York: Bloomberg Press.
5. Петров, В. (2022). Финтех революция. Санкт-Петербург: Питер.
6. Johnson, R. (2023). Digital Banking Transformation. Chicago: Banking Review.
7. Ahmadov, B. (2023). Raqamli moliya asoslari. Toshkent: Moliya.
8. Brown, L. (2023). ESG Investing Trends. Boston: Harvard Business Review.
9. Соколов, Д. (2023). Будущее финансовых рынков. Москва: Экономика.
10. Thompson, K. (2023). Financial Innovation and Technology. Oxford: Oxford Press.

**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2-TOM, 10-SON (31-OKTABR)**

MUNDARIJA

1	Weaving Words into Persuasion: A Comparative Study of Figurative Language in Menasive Speech Acts of English and Uzbek <i>Shohsanamxon O'rnova</i>	5-9
2	PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARINI SIFAT VA MIQDOR JIHATDAN TAHLIL QILISH <i>Xusanova Xilola Xaqberdiyevna</i>	10-13
3	Tuproqning sho'rланishi: global qishloq xo'jaligiga o'sib borayotgan xafning oldinni olish. <i>Yuldashev Komil Qurbonovich</i>	14-17
4	ИШЕМИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА: КЛИНИЧЕСКИЕ ПРИМЕРЫ И ОСОБЕННОСТИ ЛЕЧЕНИЯ Хужанов Хуснитдин Баймуратович, Кобилов Одилжон Рустамович Ниёзова Шахноза Хамайдиновна	18-21
5	ОҲАҚТОШ ВА СОЗТУПРОҚ МАТЕРИАЛЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН БОШҚА ХОМ АШЁЛАРНИНГ МИНЕРАЛ ТАРКИБИНИ ЎРГАНИШ. <i>О.А.Тошмаматов</i>	22-26
6	STATISTIK KO'RSATKICHLARNING TURLARINI TAHLIL QILISH <i>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</i>	27-31
7	ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ ГИДОВ - СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА, ПРИ ОБУЧЕНИИ ИХ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ Абдурасулова Нилуфар Абдусалим қизи	32-36
8	IDIOMATIC EXPRESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK: A CONTRASTIVE ANALYSIS AND TRANSLATION IMPLICATIONS <i>Azimova Laylo Faxriddin qizi</i>	37-41
9	ONLAYN NASHRNING XUSUSIYATLARI <i>Madiyarov Babur Allambergenovich</i>	42-45

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
Volume 2, Issue 10, 31-Oktobre 2024

10	JAMIyatning shakllanishini ijtimoiy falsafiy tahlili Rakhmatjon Akhmedov	46-49
11	OLIY TA'LIM BOSHQARUVI UCHUN RAHBARLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATIV PEDAGOGIK STRATEGIYALAR. Murodjan Allabergenov	50-52
12	Qoraqalpoqlarning joylashuvi va bo'linishiga oid ma'lumotlar tahlili Sohiba Boysariyeva	53-58
13	CHARACTERISTICS OF FEBRILE SEIZURES IN CHILDREN. Khodjamov Shahzod Tilavmurod ugli	59
14	Sog'lam turmush tarzi tamoyillari. Eshniyozova Nilufar Farhod qizi	60-62
15	DASTLABKI ISHLOV BERISH VA O'ORGANISHNI CHUQURLASHTIRISH ALGORITMLARI YORDAMIDA VIDEO TASVIRLARDA YUZ IFODALARINI ANIQLASH Muminov Islom Bahodir o'g'li	63-65
16	Eshqobil Shukur asarlarining lingvopoetik aspektida tadqiq etilishi Rajabova Sabohat Jo'ramurod qizi	66-68
17	СВОЙСТВА КОЛЛОИДНЫХ ВЕЩЕСТВ И ИХ СТАБИЛИЗАЦИЯ Кенжав Нуридин	69-71
18	ANIMATSION FILMLAR SUBTITRLI TARJIMALARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA). Ro'zimurodova Zarina Dusmurod qizi	72-74
19	Sun'iy intellekt va kreativlik. Toshpo'latova Dilfo'za Komiljon qizi, Hoshimova Nilufar Eshmurod qizi, Ma'mirov Ma'rufjon Yoliqul o'g'li Donoyev Shodiyor Safarali o'g'li	75-80
20	Kasbiy ta'limda xorijiy tillarni innovatsion yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish. G.J.Mexmonaliyeva	81-83
21	Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o'zbek milliy adabiyotidagi tutgan o'rni. Alimova Zebo Xamidullaevna, Boymatova Sarvinoz Shuxrat qizi	84-86
22	Axborot texnologiyalarining iqtisodiyot rivojiga tatbiqi Yorqulov Shoxinur Baxtiyor o'g'li, Mustafoyeva Anora Ulug`bek qizi	87-89

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIYU VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIU-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, 31-Oktobre 2024

23	КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ПАРАМЕТРОВ ГЕМОДИНАМИКИ У БОЛЬНЫХ С ОСЛОЖНЕНИЕМ В ВИДЕ ПОВЫШЕНИЯ ВНУТРИБРЮШНОГО ДАВЛЕНИЯ Ф.Ф. Азизова ,М.Г. Мухамедова	90-93
24	ON THE HISTORY OF STUDYING THE BIOLOGICAL DIVERSITY OF THE PLANT NITRARIA SCHOBERI L. K.M. Nasimov , F.E. Saitkulov , Z.Z Mirvaliyev , U.N. Nizamov , A.Sh.Toshtemirov , S. Kulmirzayeva , J.J. Faxriddinov .	94-103
25	IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTON SSRNING MARKAZIY VA JANUBIY VILOYATLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINING AHVOLI VA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR. <i>Ibodov Behzod Yuldashevich</i>	104-109
26	 MILLIY YUKSALISH BOSQICHINING XUSUSIYATLARI V INSONGA QO'YILADIGAN TALABLARNING ORTISHI. Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi	110-113
27	ХАРАКТЕР И АНАЛИЗ КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЯВЛЕНИЙ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ ПЕРЕНЕСШИХ SARS-COV2. Хурсандов Илёс Ахмедович Хамдамов Бахтиёр Зарифович	114-126
28	KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO TA'LIM DASTURLARI. Matrazov Kuranmurat Salayevich	127-130
30	Bank kreditlari orqali loyihaviy moliyalashtirishni samarali tashkil etish. <i>Bozorov Jumanazar To'xtayevich</i>	131-135
31	ЖАДИД МАЪРИФАТПАРVARЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ОНА ТИЛИ СОФЛИГИГА ЭРИШИШ МАСАЛАЛАРИ Сирожиддин Курбонбоевич Сапарбаев	136-140
32	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish <i>Oqilov Abrorjon Rahmonqulovich</i>	141-145
33	Banklarda ichki audit tizimi orqali xarajatlarni nazorat qilish <i>Nasrullayev Sardor Nasriddinovich</i>	146-150
34	Aksiyadorlik jamiyatlarining evolyutsiyasi, funktsiyasi va zamонавиј iqtisodiy tizimlarga ta'siri. Shohonov Safarmurod	151-154

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIU-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, 31-Oktobre 2024

35	ENDOKRIN OFTALMOPATIYADA KO'Z OLMASINING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH. Sarvarxon Akmaljon o'g'li Yuldashov	155-157
36	МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ МОҲИЯТИ ВА ГЛОБАЛИЗАЦИОН ХУСУСИЯТИ Сардор Ашурев	158-161
37	MOLIYA BOZORINING KELAJAK ISTIQBOLLARI <i>Jumayev Islombek Akram o'g'li</i>	162-165